

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDITGA LOYOQATLILIK TAHLILI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Safarov Alisher Ibrohim o‘g‘li

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

Moliya va bank ishi kafedrası o‘qituvchisi.

ORCID: 0009-0003-5890-3982

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15212072>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholash usullari tahlil qilinadi. Moliyaviy koeffitsiyentlar asosida kreditga layoqatlilikni aniqlash me‘yorlari va ularni hisoblash tartibi ko‘rib chiqiladi, hamda kreditga layoqatliligini tahlil etishning tashkiliy, uslubiy va amaliy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha muhim taklif, tavsiyalarni shakllantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: kreditga layoqatliligini baholash, moliyaviy koeffitsiyentlar, likvidlilik, balansi likvidligi, mablag‘lar aylanuvchanligi, moliyaviy barqarorlik.

ANALYSIS AND IMPROVEMENT OF CREDITWORTHINESS OF BUSINESS ENTITIES

Abstract. This article analyzes the methods for assessing the creditworthiness of economic entities. It examines the standards for determining creditworthiness based on financial coefficients and the procedure for their calculation, as well as aims to develop important proposals and recommendations for improving the organizational, methodological, and practical aspects of creditworthiness analysis.

Keywords: creditworthiness assessment, financial coefficients, liquidity, balance liquidity, asset turnover, financial stability.

АНАЛИЗ И ПОВЫШЕНИЕ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ ХОЗЯЙСТВОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются методы оценки кредитоспособности хозяйствующих субъектов. Рассматриваются нормы определения кредитоспособности на основе финансовых коэффициентов и порядок их расчета, а также формулируются важные предложения и рекомендации по совершенствованию организационных, методических и практических аспектов анализа кредитоспособности.

Ключевые слова: оценка кредитоспособности, финансовые коэффициенты, ликвидность, ликвидность баланса, оборачиваемость средств, финансовая устойчивость.

Kirish.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, diversifikatsiyalash, integratsion jarayonlarning kuchayishi moliyaviy munosabatlarning shunday bir murakkab tuzilmasiga zaruriyatni kuchaytirmoqdaki, Xo'jalik yurituvchi subyektlari doimo kredit va qarz mablag'lariga zaruriyat sezmoqdalar.

Jahon tajribasidan bugungi kunda jalb qilingan qarz kapitali hajmi dunyo yalpi ichki mahsulotiga nisbatan bir necha bor o'sganligini ko'rish mumkin. Bu borada, kredit resurslarini jalb etishda, uning eng muhim ijrochilari bo'lgan banklarning roli tobora oshib bormoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlariga qarz kapitalini jalb etish va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish bugun juda aktual va dolzarb masala sifatida o'rtaga chiqmoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining kreditga layoqatliligini tahlil qilish moliyaviy munosabatlar tizimini to'g'ri boshqarish imkoniyati yaratadi.

Kreditga layoqatlilikni baholash va tahlil etishda eng muhim jihatlar Xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy va istiqboldagi moliyaviy, iqtisodiy imkoniyatlariga qaratiladi. Lekin bugungi kunda ularning mavjud potentsiali yetarli darajada deb bo'lmaydi.

Shu sababli O'zbekiston iqtisodiyotiga xos bo'lgan muhim jihat Xo'jalik yurituvchi subyektlarini iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qarz kapitaliga oid moliyaviy munosabatlarni tubdan yangi tizimini shakllantirish talab etiladi.

Bu esa o'z navbatida tanlangan mavzuning g'oyatda dolzarb ekanligini xarakterlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi olimlar kreditga layoqatlilik tushunchasiga turlicha talqin berishgan.

Zamonaviy iqtisodchi olimlar kreditga layoqatlilik tushunchasiga turlicha ta'riflar berishda ko'proq uning moliyaviy jihatiga katta ahamiyat qaratishadi.

Rossiyalik olim Tavasiyev A.M.: "kreditga layoqatlilik deganda – qarzorning o'z vaqtida va to'liq kredit summasini (asosiy qarz va foizi) to'lashga qodirligi va tayyorligi" tushuniladi.

Yanishevskaya V.M. tomonidan “kredit to‘loviga layoqatlilik – bu bank tomonidan mijozga kredit ajratish mumkinligi va uning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan mijozning kredit va uning foizlarini kelajakda o‘z vaqtida qaytara olish imkoniyati” deb ta’rif beriladi.

Rus olimi professor Lavrushin O.I. tomonidan kreditga layoqatlilik deganda, qarzdorni o‘z qarz majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida (asosiy qarz va foiz) to‘lay olish qobiliyati deb tarif beriladi.

Banklar tomonidan kreditga layoqatlilik deganda – mijozning kredit summasini o‘z vaqtida va to‘liq qaytara olish qobiliyati tushuniladi.

Kreditga layoqatlilikka Respublikamiz iqtisodchi olimlari Abdullaev Y. va boshqalar tomonidan mijozning kreditga layoqatliligi deganda qarz oluvchining olgan qarzini (asosiy qarzini va uni foizini) to‘la va o‘z vaqtida qaytarish qobiliyati tushuniladi¹ deb e’tirof etiladi.

Professor Pardayev M.Q. tomonidan ham keltiriladi. “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarining kreditga layoqatliligi deganda uning kredit olish va o‘z vaqtida olingan kreditni to‘liq qaytarish qobiliyati tushuniladi”².

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kreditga layoqatlilik tushunchasiga Kreditga layoqatlilik – bu kredit oluvchining majburiyat sifatida qayd etilgan asosiy qarz va foizlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytara olish qobiliyati tushuniladi deb umumiy ta’rif berish mumkin.

Kreditga layoqatlilik to‘lovga qobillikdan farq qiladi. To‘lovga qobillik umumiy ma’noda kreditga layoqatlik aniq, ya’ni faqat kredit olish yuzasidan qobidirlikka nisbatan ishlatiladigan tushunchadir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlari asosida uning kreditga layoqatliligiga baho berish mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarining kreditga layoqatliligini baholashda dastlab Xo‘jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy (likvidlilik, balansi likvidligi, mablag‘lar aylanuvchanligi, moliyaviy barqarorlik, samaradorlik ko‘rsatkichlari) va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarini (biznes obro‘si, kredit tarixi, boshqaruv samaradorligi va boshqalar) tahlil qilinishi zarur.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy ahvolini to‘liq ochib bera oladi.

Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

¹ Y. Abdullaev, E. Koraliev, Sh. Toshmurodov, S. Abdullaeva “Bank ishi” T.: Iqtisod –moliya, 2009, 354 bet

² Pardayev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1999 y. 219-bet

Tadbirkorlik subyektlarini kreditga layoqatligining unsurlari

1-jadval

Likvidlilik ko'rsatkichlari	Balansi likvidligi	Mablag'lar aylanuvchanligi	Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlar	Samaradorlik ko'rsatkichlari
Mutlaq, oraliq va umumiy ko'rsatkichlari	Aktivlarning pulga aylanish tezligi	Aktivlar, asosiy kapital, aylanma kapital, TMZ, tovarlar aylanuvchanligi	Moliyaviy mustaqillik, qarz va o'z mablag'lari nisbati, o'z mablag'larining salmog'i, aylanma mablag'lari naqdligi	Foyda va rentabellik ko'rsatkichlari

Likvidlilik ko'rsatkichlari orqali tadbirkorlik subyektlarining yaqin kelajakda yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatlarni qoplay olish darajasi baholanadi. Balans likvidligi tadbirkorlik subyektlari majburiyatlarini uning aktivlari bilan qoplash darajasi sifatida ta'riflanadi, ularning pul shakliga o'tish muddatlari majburiyatlarni qaytarish muddatlariga mos keladi³.

Likvidlilik koeffisienti pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar, debitorlik qarzlari va muddati o'tgan debitor qarzdorliklar ayirmasining joriy majburiyatlarga nisbati sifatida hisoblanadi.

Balans likvidligi tahlilida buxgalteriya balansi aktiv moddalarini likvidligiga ko'ra, passiv moddalarini qaytarish muddatlariga ko'ra guruhlariga ajratish orqali o'zaro farqlashni ifoda etadi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkich bo'lib, u asosida biznesni boshqarishda resurslar cheklanganligi va ulardan unumli foydalanish darajasi tahlil qilinadi va uning muhim yo'nalishlari belgilanadi.

³ Sagdillayeva Z, Choriyev I, Mahmudov A, Yuldasheva U. Iqtisodiy tahlil. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2018.-168-169 b.

Moliyaviy barqarorlik tadbirkorlik subyektlarining aktivlari holati va tarkibi, ularning manbalar bilan ta'minlanganligi bilan tavsiflanadi. U tijorat hamkori sifatida tadbirkorlik subyektlari ishonchligining asosiy mezoni hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik keng qamrovli tushuncha bo'lib tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy va ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Moliyaviy barqarorlik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining butun jarayonini belgilab beruvchi eng muhim dastak va shart hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishimizni yoritishda analiz, sintez, deduksiya va induksiya usullaridan foydalanildi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholash usullari tahlil qilinib, moliyaviy koeffitsiyentlar asosida kreditga layoqatlilikni aniqlash me'yorlari va ularni hisoblash tartibi o'rganildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish orqali kengroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi.

Tahlil va natijalar

Tadbirkorlik subyektlari kreditga layoqatliligini tahlil qilishning normativ talablari O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, tijorat banklari tomonidan tuzib chiqiladi. Qarz munosabatlarini rasmiy jihatlarida, barcha holatlarda kreditga layoqatlik tahlili yuzasidan bir xildagi zaruriy amallar, analitik tadbirlar talab etiladi. Xalqaro amaliyotda kreditlar va qarzlarni uzoq, urta va qisqa muddatga tarkiblanishi belgilangan. Milliy amaliyotda esa ularni shartli ravishda uzoq va qisqa muddatli guruxga tarkiblash tartibi belgilangan.

Tahlil mazmunini tadbirkorlik subyektlarining kredit, qarz mablag'larini jalb etishi yuzasidan ularning moliyaviy holati va natijalarini tahlil etish orqali pul mablag'larini ko'paytirish imkoniyatlarini retrospektiv tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Tadbirkorlik subyektlarini rivojlanishida kredit munosabatlari va to'lov qobiliyatini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Banklar tadbirkorlik subyektlarining kreditga layoqatliligini baholash orqali risklarni kamaytirishga, kredit resurslarini oqilona joylashtirish orqali o'z daromadlarini oshirishga, moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga harakat qiladilar.

Mijozlar esa o'zlarining moliyalashtirish masalalarini ijobiy ha qiladilar.

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ikki tomonlama ko'rib chiqish lozim:

1.Qarz beruvchi tomonidan kreditga layoqatlilik baholash;

2. Qarz oluvchi tomonidan kreditga layoqatlilikni baholash.

Kreditga layoqatlilik tahlilining tartib-qoidalaridan kelib chiqib, tadbirkorlik subyektlarining kreditga layoqatliligi tahlili quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin:

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar: yuridik hujjatlar; moliyaviy hisobot; biznes reja ma'lumotlari (olingan kredit yuzasidan); qisqa va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi (tadbirkorlik subyektlari faoliyati yuzasidan) asosida kreditga layoqatlilikni tahlil etish va baholash.

Bank tomonidan to'planadigan ma'lumotlar qatoriga mijozlarning kredit tarixi, tadbirkorlik subyektlarining bozordagi obro'si, kredit maqsadi, shuningdek boshqa qo'shimcha ma'lumotlar asosida kreditga layoqatlilikni baholash va tahlil qilish.

Tadbirkorlik subyektlari kreditga layoqatliligini baholashda o'rganiladigan muhim ko'rsatkichlar va ularning kompleks tahlili quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tadbirkorlik subyektlari likvidlilik ko'rsatkichlari va balans likvidliligini tahlili;
- tadbirkorlik subyektlari mablag'lari aylanishining tahlili;
- tadbirkorlik subyektlari faoliyatining muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlili;
- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining tahlili;
- kreditga layoqatlilikni ballik baholash.

Balans likvidliligi tahlili tadbirkorlik subyektlarining kreditga layoqatliligini tahlilida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Balans likvidliligi tadbirkorlik subyektlarining muddatli majburiyatlarini tegishli aktivlar bilan qoplay olish qobiliyatini bildiradi.

Buxgalteriya balansi likvidliligi aktivlarning pulga aylanish tezligini anglatib, ularning majburiyatlarga yo'naltirish orqali moliyaviy holatni baholashni anglatadi.

Kreditga layoqatlilikni tahlil etishda buxgalteriya balansi aktivi va passivi moddalarini likvidligi bo'yicha tahlili⁴

2-jadval

Aktiv moddalar tarkiblanishi				Passiv moddalar tarkiblanishi			
№	Tarkib	Db	Do	№	Tarkib	Db	Do
A1	Doimiy harakatdagi aktivlar	144706	314574.5	P1	To'lov muddati kelgan majburiyatlar	381037	946884
A2	Tez pulga aylanadigan	251694	783021	P2	Qisqa muddatli majburiyatlar	7396.5	4439

⁴Raximov M., Kalandarova N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2019.-724b.

	aktivlar						
A3	Sekin pulga aylanadigan aktivlar	109281 0.5	4744249.5	P3	Uzoq muddatli majburiyatlar	233774 5	612500 5
A4	Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	510986 5.5	6296599.5	P4	Doimiy passivlar	387289 7	506211 6

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, tadbirkorlik subyekting aktivlari kapital va majburiyatlar bilan bog'langanda quyidagi natijalar qayd etilgan. A1 ning summasi P1 ning summasidandan bir necha baravar kichik hisoblanadi.

A2 ning summasi P2 ning summasidan bir necha baravar yuqori hisoblanadi. A3 ning summasi P3 nisbatan bir necha baravavar kichikligi kuzatiladi. A4 ning summasida ham P4 ga nisbatan kichiklik darajasini ko'rish mumkin.

Uning qiymat ifodasini quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rib o'tish mumkin
Bunda A1-Pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar(kassa, hisob-kitob schetidagi pul mablag'lari, valyuta mablag'lari, likvid aktivlarning qisqa muddat qo'yilma shaklidagi turlari);

A2-Debitorlik majburiyatlari (12 oy davomida pulga aylanuvchi qarz majburiyatlari);

A3-Ishlab chiqarish zaxiralari, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlar (12 oydan oshuvchi debitorlik majburiyatlari);

A4-Uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli investitsiyalar va h.k.)

Balans likvidligi yuzasidan quyidagi shartlarga amal qilish normasi belgilangan, ya'ni:

$$A1 > P1; A2 > P2; A3 > P3; A4 < P4 \text{ (5)}^5$$

Balans likvidligi bo'yicha bank amaliyotida joriy, tez va mutlaq likvidlilik ko'rsatkichlari aniqlanadi va davriy baholanadi.

Doimiy harakatdagi aktivlar va ularning o'zgarishlari

3-jadval

№	Tarkib	Db	Do	Farqi +,-	O'sishi, %
A1	Doimiy harakatdagi aktivlar	144706	314574.5	169869.5	109

⁵ Raximov M., Kalandarova N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2019.-724b.

P1	To'lov muddati kelgan majburiyatlar	381037.5	946884	565846.5	124.2
	Mablag'larning ortiqchaligi, yetishmovchiligi(A1-P1)	-236331.5	- 632309.5	-395977	133.85

Xulosa: doimiy harakatdagi aktivlarning to'lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplashga yetishmovchiligi kuzatilgan. Davr boshidagi yetishmovchilik 632309.5 ming so'mni, davr oxiriga kelib 395977 ming so'mni tashkil etgan.

4-jadval

Tez pulga aylanadigan aktivlar va ularning o'zgarishlari⁶

№	Tarkib	Db	Do	Farqi	O'sishi
A2	Tez pulga aylanadigan aktivlar	251694	783021	531327	155.65
P2	Qisqa muddatli majburiyatlar	7396.5	4439	2957.5	30
	Mablag'lar ortiqchaligi, yetishmovchiligi(A2-P2)	244297.5	778582	534284.5	159.35

Xulosa: tez pulga aylanadigan aktivlar (debitorlik majburiyatlari)ning qisqa muddatli majburiyatlar (qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni)ni qoplashga yetarliligi ta'minlangan. Davr boshidagi ortiqchalik 778582 ming so'mni, davr oxiridagi holat 534284.5 ming so'mni tashkil etgan.

5-jadval

Sekin pulga aylanadigan aktivlar va ularning o'zgarishlari

№	Tarkib	Db	Do	Farqi	O'sishi
A3	Sekin pulga aylanadigan aktivlar	1092810.5	4744250	3651439	167.05
P3	Uzoq muddatli majburiyatlar	2337745	6125005	3787260	81
	Mablag'lar ortiqchaligi, yetishmovchiligi (A3-P3)	- 1244934.5	- 1380755.5	135821	55.45

Xulosa: sekin pulga aylanadigan aktivlar (tovar moddiy zaxiralar)ning uzoq muddatli majburiyatlar (uzoq muddatli kreditlar va qarzlarni)ni qoplashga davr boshida (-1244934.5 ming so'm) va davr oxirida (-1380755.5 ming so'm) yetishmovchiligi kuzatilgan.

⁶ Raximov M., Kalandarova N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2019.-724b.

6-jadval

Qiyin pulga aylanadigan aktivlar va ularning o'zgarishlari

№	Tarkib	Db	Do	Farqi	O'sishi
A4	Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	5109865.5	6296600	1186734	61.6
P4	Doimiy passivlar	3872897	5062117	1189220	65.35
	Mablag'lar manbasining ortiqchaligi, yetishmovchiligi (P4-A4)	1236968.5	-1234483	2485.5	49.9

Xulosa: qiyin pulga aylanadigan aktivlar (uzoq muddatli aktivlar) summasidan doimiy passivlar (o'z mablag'lari manbaasi) o'rtasidagi farqlanish, davr boshida 1236968.5 ming so'mni, davr oxirida – 1234483 ming so'mni tashkil qilgan.

Kreditga layoqatlilikni tahlil etishning keyingi muhim qatori bu aktivlarning aylanish darajasiga baho berishga ya'ni, tadbirkorlik subyektlarining ish aktivligini o'rganishga qaratiladi.

Aylanish ko'rsatkichlari tadbirkorlik subyektlarining o'z mablag'laridan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Tadbirkorlik subyektlari aktivlarining har bir turlari bo'yicha aylanish turlari yuqori bo'lsa, shunga mos ravishda kreditga layoqatliligi va ulardan foydalanish samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

Taklif va xulosalar

Ilmiy izlanishlar natijasida kreditga layoqatlilik tushunchasiga doir iqtisodiy adabiyotlardagi turli qarashlar chuqur o'rganilib, quyidagicha ta'rif berildi: bu tadbirkorlik subyektlarining asosiy qarz va foizlarini o'z vaqtida va to'liq qaytara olish hamda iqtisodiy samara olish qobiliyatiga egaligidir. Tadbirkorlik subyektlarining kreditga layoqatliligi tahlili va uning amaldagi uslubiyotini xorij tajribasini hisobga olgan holda takomillashtirish tavsiya etiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining kreditga layoqatliligi tahlilida moliyaviy ahvolini o'rganishning ko'rsatkichlar tizimi qayta tarkiblandi: moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlarni tarkiblash, joriy (moliyaviy ahvol va undagi o'zgarishlar, moliyaviy natijalar, pul oqimlari va xususiy kapital) va istiqbol (kutilayotgan moliyaviy ahvol, kutilayotgan moliyaviy natija, kutilayotgan pul tushumlari va kapital hajmi) ko'rsatkichlarini tarkiblash.

Tadbirkorlik subyektlari kreditga layoqatliligini tahlil etishning maxsus dasturlarini tuzib chiqish va ularning mobilligini ta'minlash. Pul oqimi baholash bilan mijozning kredit to'loviga layoqatliligini aniqlash asosiy me'zon hisoblanadi. Kredit pul bilan to'lanadi. Shuning uchun korxonada pul mablag'i o'z vaqtida to'lov uchun yetarli hamda tayyor bo'lishi shart. Pul oqimi

kirim va chiqimdan iborat harakat bo'lgani uchun u doimo o'zgarib turadi. Biroq, o'zgarish qanday bo'lishidan qat'iy nazar korxonada kredit va boshqa to'lovlarni o'z vaqtida to'lash uchun yetarli bo'lgan pul mablag'i bo'lishi shart.

Qisqa muddatda to'lov imkoniyatining mavjudligini baholash. (Buxgalteriya balansida) Qisqa muddat odatda bir oy, yani o'ttiz kunni o'z ichiga oladi. Bunda buxgalteriya balansida mavjud bo'lgan pul mablag'larini (bunda buxgalteriya balansida mavjud bo'lgan pul mablag'larini bo'lishi mumkin ,pulga tenglashtirilgan aktivlar ham birgalikda) joriy majburiyatlar joriy qiymatiga taqqoslagan holda o'rganiladi.

REFERENCES

1. “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida 2019-yil 5-noyabr.
2. Y.Abdullavev, E.Koraliev, Sh.Toshmurodov, S.Abdullaeva “Bank ishi” T.: Iqtisod – moliya, 2009, 354 bet
3. Pardayev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1999 y.219-bet
4. Sagdillayeva Z, Choriyev I, Mahmudov A, Yuldasheva U. Iqtisodiy tahlil. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2018.-168-169 b.
5. Raximov M., Kalandarova N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2019.-724b.
6. Abdullaeva Sh. Kreditlashda skoringni qo'llash amaliyoti. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnal.-Toshkent, 2017 yil 1-soni, 11 bet.
7. Sattorov M. Qarz oluvchilarning moliyaviy holatini skoring usulida baholash. “Bozor, pul va kredit” ilmiy-amaliy jurnal.-Toshkent, 2015 yil 4-soni, 34 bet.
8. Зайко А.Г. Коэффициентный анализ денежных потоков предприятия неэнергетического машиностроения // Интернет-журнал “Наукоедение”Том9,№2 (2017)
<http://naukovedenie.ru/PDF/04EVN217.pdf>
9. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
10. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
11. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
12. www.sbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.